

Ahmadjonning kitobxonligi

Quddus Muhammadiy



Maqollarni o'qing va ma'no-sini tushuntirib bering.

Kitobsiz uy –
qiyoshsiz
kun.

Bilim – boylik,
kitob – uning
sandig'i.

Oltin yerdan, bilim esa
kitoblardan qazib olinadi.



O'qing.

Hay-hay chiroyli kitob,
O'qimoqqa juda bop.
Bizning Ahmad qayoqda?
Qidirgani bu yoqda.
Ahmadjon kelib qolar,
Kitobni qo'lga olar.
Bir-bir varaqlar sekin,
Rasmi kam ekan lekin.
Ana sichqon, mushukvoy,
Ana xo'roz, kuchukvoy.
Ana mug'ambir tulki,
Pisib turishi kulki.
Ana o'rdak, ana g'oz,
Ana maymun – sho'x dorboz.





Xo'roz qichqirar: "Qu-qu!"
 Bunday yo'lbars, sher yo'g'-u...
 Shu bilan qolar kitob,
 Go'yo o'qiydi hisob.
 Talabimiz Ahmaddan,
 Ko'rganini – suvratdan
 Bizga ham aytsin, qani,
 Kitobda hamma ma'ni.
 Buqalamun degan jonivor
 Nechun uzun tili bor?
 Olmaxon nozik hayvon
 Nechuk dumi kattakon?
 O'rdakning bag'ri yoyiq,
 Gavidasi misli qayiq?
 Savolim bo'ldi odosh,
 Javob kutaman, Yo'ldosh!



1. Nima deb o'ylaysiz, Ahmadjon kitob o'qishni yaxshi ko'radimi?
2. Kitobda qanday jonivorlar tasvirlangan ekan?
3. Siz qanday kitoblarni o'qishni yoqtirasiz?



She'rni ifodali o'qishga tayyorlaning.

